

ISAJON SULTONNING TARIXIY ROMANLARIDA POETIK STRUKTURA VA BADIY TO‘QIMA UYG‘UNLIGI (Asarning badiiy til xususiyatlari)

UrDU “O‘zbek tili va adabiyoti”

kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Xolmuratova Moxira Egamberganovna

E-mail: moxlaroyim19910220@gmail.com

Tel raqami: +998933399120

Annotatsiya: Tilning imkoniyatlarini, turli ma’no nozikliklarini namoyon etishda badiiy ijod ahlining, xususan, shoir va yozuvchilarning xizmati beqiyos. Tashqaridan qaraganda, badiiy til oddiy so‘zlashuv tilidan farq qilmaydi, lekin u birinchi navbatda estetik vazifa bajaradi. Badiiy til har bir ishlatilgan so‘z yordamida muallif maqsadini amalga oshiradi va asarning ma’nosini ochib beradi. Til bir vaqtning o‘zida ham tasvir vositasi, ham tasvir predmeti sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki muallif, bir tomondan voqea-hodisalarni, odamlarni va predmetlarni tasvirlashda ulardan foydalansa, boshqa bir tomondan esa o‘quvchilar bilan qahramonlar nutqining lisoniy o‘ziga xosliklari ustida bosh qotiradi.

Kalit so‘zlar: ijod, badiiy til, tasvir, personaj, qiyofa, muallif nutqi, qahramon nutqi, so‘z san’ati, xarakter, sujet, roman.

Annotation: The contribution of literary creators, especially poets and writers, is invaluable in demonstrating the possibilities of language and the subtleties of meaning. At first glance, literary language may seem no different from ordinary speech, but it primarily serves an aesthetic function. Through every word used, the literary language fulfills the author’s intent and reveals the meaning of the work. Language simultaneously acts as both a means and an object of depiction. This is because, on the one hand, the author uses language to describe events, people, and objects, while on the other hand, he reflects on the linguistic features of both the characters’ and the narrator’s speech.

Keywords: creativity, literary language, depiction, character, image, author’s speech, character’s speech, art of words, character, plot, novel.

Аннотация: Роль деятелей художественного творчества, особенно поэтов и писателей, в раскрытии возможностей языка и его смысловых оттенков — неопределима. На первый взгляд, художественный язык может показаться схожим с разговорным, однако он прежде всего выполняет эстетическую функцию. С помощью каждого употреблённого слова художественный язык реализует авторский замысел и раскрывает смысл произведения. Язык одновременно выступает и средством, и предметом изображения. Это объясняется тем, что автор, с одной стороны, использует его для описания событий, людей и

предметов, а с другой — размышляет над языковыми особенностями речи героев и повествователя.

Ключевые слова: творчество, художественный язык, изображение, персонаж, образ, речь автора, речь героя, искусство слова, характер, сюжет, роман.

Badiiy nutqning eng yorqin xususiyatlaridan biri – bu asar personajlarining o'ziga xosliklarini til vositalari yordamida yetkazib berishdir. Qahramonlar qiyofasining ko'rinishi, harakatlari, u istiqomat qiluvchi joy, uning xarakteristikasining badiiy til orqali tasvirlanishi o'quvchiga obrazni tushunib yetishiga yordam beradi. Badiiy til vositalari nafaqat personajlarga bo'lgan xarakteristika va muallifning fikrini, balki asarda ifodalangan har qanday predmet yoki voqealarni yetkazib berishi mumkin. Yana bir boshqa badiiy tilning asosiy vazifasi – bu muallif nutqidan qahramon nutqining ajratilishidir. Bunda muallif bir chetda turib, so'zni qandaydir bir personajga beradi. Badiiy til turli xildagi badiiy vositalardan foydalanadi: metaforalar, kinoya, so'z o'yini (tajnis), inversiya va boshqalar.

Badiiy til badiiy informatsiya yetkazish vositasidir. Til badiiy adabiyotning birinchi elementi. Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlaridan aynan “so'z san'ati” ekani bilan ajralib turadi. Badiiy so'z va ularning turli shakldagi birikuvlaridan badiiy mant maydonga keladi. Badiiy adabiyot uchun obrazli tafakkur va tafakkur tarsi uchun estetik ta'sirga ega so'z muhim hisoblanadi. Poetik so'z orqali turli obrazlar, moddiy va ma'naviy borliq tasvirlanadi. Shuning uchun til badiiy adabiyotga eng asosiy tasviriy vosita sanaladi. Kishilik jamiyatidagi so'z, til, nutq hodisasini adabiyotshunoslik ham o'rganadi. Badiiy matn ichidagi so'z alohida lug'atlardagi so'zdan, badiiy asar tili qoliplashgan adabiy tildan, badiiy matn aynan moddiylashgan badiiy asardan farq qiladi. Yozuvchi qahramonlar nutqini individuallashtirish va tipiklashtirishda xalq og'zaki ijodidan, ayniqsa, xalq maqollaridan obrazlarning ruhiga, xulq-atvoriga moslarini tanlab, ularning nutqiga yedirib yuboradi. Yozuvchi umumxalq tili vositasida badiiy obraz va xarakter yaratadi. Obraz va xarakterlarning tipik va individual bo'lishi uchun turli-tuman tasviriy vositalar, shu jumladan, jonli tilning qaymog'I bo'lgan xalq aforizmlari – maqol-matal, hikmatli so'zlar, iboralar badiiy-tasviriy qurol bo'lib xizmat qiladi. Lingvistik vositalar yordamida badiiy asarning g'oyaviy-emotsional qirralarini ko'rsatish mumkin. Bunda matndagi badiiy so'zga, takrorlarga, yangi so'zlarning paydo bo'lishiga, eski so'zlarning qo'llanish doirasiga, umuman olganda, badiiy tasvir vositalariga diqqat qaratiladi. Yozuvchi qahramonlarning so'zlash manerasini, uning o'ziga xosligini, intonatsiyasini, turli jumlar orqali, monolog va dialoglar orqali tasvirlashga, qahramon xarakteriga xos chiziqlarning

shakllanishini uning nutqi orqali aks ettirishga alohida e'tibor berishi lozim. Isajon Sultonovning o'ziga xosligi, individual xususiyati dastavval uning tilida ko'rinadi. Isajon Sultonning qahramonlari yosh va qari, boy yoki kambag'al, saxiy va baxil, ilg'or va qoloq, mahmadona va kamgap, jamiyatning turli qatlamlariga mansub bo'lgan odamlardir. Ularning o'ziga xosligi tilida namoyon bo'ladi. Yozuvchi Isajon Sultonov asarlarining bosh qahramoni qilib real kishilarni qo'yarkan, xilma-xil xarakterlar to'qnashuvida dialogdan unumli foydalanadi.

Isajon Sultonov ushbu romanda ko'plab xalq iboralaridan foydalangan, ammo maqollarga kelganda bunday deya olmaymiz. Chunki butun asar davomida xalq maqollariga deyarli duch kelmaymiz.

Yozuvchining mahorati shunda ko'rinadiki, u o'zi mansub bo'lgan xalqning hayotini milliy til vositasida tasvirlayotganda tarixiy hodisalar orqali milliy qahramon va milliy urf-odatlarini bir-biriga uyg'unlashtirib yuboradi. Yozuvchilar xoh tarixiy, xoh zamonaviy, xoh hajviy asarlar yaratmasinlar, avvalambor til mahorati ustida tinmay ishlashlari, izlanishlari lozim. Badiiy asar tili esa yozuvchining uslubini belgilab beradi. Jumladan, asarning tili, g'oyasi va mazmunini ifodalovchibadiiy nutq faqatgina odamlar nutqini individuallashtirmasdan, balki tasvir etilayotgan sharoit va muhitni, tabiat va holatlarni ham xususiylashtirib, milliiylashtirib beradi. Qahramonlarning ichki dunyosini chuqur yoritishda tashqi ko'rinish va holat tasvirining ahamiyati katta. Ayniqsa, yozuvchi muallif nutqi yordamida qahramonlarning o'zlari izhor etib berolmaydigan jihatlarini yuz harakatlari, ko'z holatlar orqali yorqin tasvirlardi. Asarda jiddiy mavzu ko'tarilgan. Aynan shu narsa asarning so'nggi yetishga undar. Afsuski, Isajon Sultonning tarixiy romalarini badiiy tildan muvaffaqiyatli foydalanib asar ta'sirchanligini ta'minlagan deya olmaymiz. Ammo e'tirof etish joizki, yozuvchi yaratgan har bir qahramonning nutqini o'ziga xos tarzda bera olgan.

I.Sulton tarixiy romanlaridagi sarlavhalar o'z ma'nosidagi so'z yoxud iboralar asar mohiyatini umumlashtiruvchi tayanch tushuncha sifatida umumiy mazmun va muallifning badiiy niyatiga daxldor bo'lib, asardagi har bir voqea tasviri va personaj harakati bilan mantiqan bog'liqlikni ta'minlaydi. Adib qo'llagan sarlavhalar bir so'zli, so'z birikmasi va gap shaklida.

Adibning so'z qo'llash mahorati badiiy obrazlarni ismlarida ham ko'rinadi. Shuningdek, asarda romanning jozibadorligi va ohangdorligini kuchaytirish maqsadida muayyan gap yoki misralarda bir tovush va so'zning qatorlashib kelib, jarangdorlik hosil qilish hodisasi – alliteratsiya, ya'ni lafsiy san'ati namunalari ham uchraydi:

Darhaqiqat, ijodkor bo'lish orzusida hayotni zimdan, tiyrak nigoh bilan kuzatish, qolaversa yaxshi o'qish lozimligini ancha ilgari his qilgan adib doim

o'z ustida jiddiy ishladi. Bir narsaga oydinlik kiritish kerak "Munojot" (1990) qissasidan keyin adib yigirma yil vaqt mobaynida tinimsiz o'qidi, o'rgandi, jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishdi. Adabiy hodisalar o'z-o'zidan paydo bo'lmas ekan, bunga ham ichki bir ehtiyoj mahsuli sifatida qarash to'g'riroq bo'ladi. Chunki adibning har ikkala romani ham postmodernizm oqimining eng yuksak namunalari qatorida turadi. Nima uchun biz "Alximik"ni sevib o'qiymiz? Undagi voqelik ham bitta yigitning xazinani izlab yo'lga chiqishi va bu izlanishda turli xil qiyinchiliklarni boshidan kechirishi hikoya qilinadi. Isajon Sulton asarida esa "milliy qadriyat" va "milliy ruh"ning singdirilishi, o'sha kayfiyatda murojaat qilishi kitobxonni beixtiyor izidan ergashtiradi. Lekin uslubi juda og'ir. Agar kitobxon ushbu asarlarni o'qiganda "tushunmasa" o'zidan o'pkalasin. Axir bugungi "neorealizm", "postmodernizm" kabi hodisalar insoniyat taraqqiyotining, jamiyat hayotining o'zgarishlari natijasida kirib kelgan, yaratilgan adabiy yo'nalishlar sanaladi. Biz uchinchi ming yillikka qadam qo'ygan ekanmiz, fikrlarimiz ham, tafakkur va tasavvurlarimiz ham shunga monand yuksaklasha borishi kerak.

Shuni unutmaslik kerakki, har qanday badiiy asarda yaratilajak obraz, avvalo, yozuvchining kishilarga va hayotga munosabatini aks ettirish vositasi hisoblanadi. Ayni chog'da, u muallifning hayot hodisalariga bergan estetik bahosi hamdir. Aslida roman janri voqelik va inson hayotini keng har taraflama tasvirlaydi, uni butun murakkablikda ifodalaydi va ochadi. Qissadan farqli ravishda romanda ishtirok etuvchi personajlar, syujet linyalari ko'p va murakkab bo'ladi. Romanning paydo bo'lishi shaxsning jamiyatdan ajralib chiqishi, insonda individ hayotiga qiziqishining kuchayishi bilan bog'liq. Qadimgi romanlarda ko'proq qahramonlik va sarguzashtlar, qahramonlar taqdiriga yuz bergan kutilmagan o'zgarishlar ko'rsatilgan edi. Masalan, "Oltin eshak", Longning "Dafniz va Xloya", Ritsarp romanlari. Bu romanlar asosida ko'proq fantastik syujetlar va taqdirlar yotardi. Bu voqealar haqiqatdan ancha uzoqda edi.

XIX asrda O'rta Osiyoda kapitalistik munosabatlar qaror topa boshlagan edi. Roman sohasidagi dastlabki izlanishlar ham shu davrdan boshlandi. Hamzaning "Yangi saodat" asari ana shunday izlanish natijasi edi. Lekin to'la ma'nodagi roman o'zbek adabiyotida 20- yillarda yaratildi. O'zbek romanining dastlabki namunalarini yaratganlar – Sadriddin Ayniy, Mirmuhsin, Shermuhammedov, Abdulla Qahhor, Cho'lpon, H. Shams va Oybeklardir.

O'zbek romani faqat tashqi ta'sir natijasigina bo'lmay, avvalo hayotiy zaruriyat, hamda milliy an'analar natijasidir. Tashqi ta'sir ana shu ildiz va zaruriyatning shakllanishiga yordam berdi va ana shu jarayonni tezlashtirdi.

O'zbek romanining ildizlari:

1. Hayot voqeligi.
2. Xalq sarguzasht romanlari, dostonlari.

3. Yozma adabiyotning romantik dostonlari.

4. Sharq va G'arb romanchiligi.

Hozirgi roman o'zining rang-barangligi va voqea hamda xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi romanning asosiy xususiyatlari:

- inson va jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib bora olish;
- yirik hayotiy muammolarni ko'tarib chiqa olish;
- insonning ijtimoiy va xususiy hayotini butun to'laliga bilan ifoda eta bilish;
- - personajlarning ko'pligi, ana shu personajlarning o'zaro munosabatlarini har taraflama yoritish;
- qahramonlarning hayot sharoitlarini ko'rsatish va xarakterlarni ana shu hayot sharoitlari bilan big'liq holda ko'rsatish, xarakterlarning shakllanishi, rivojlanishini boshqa janrlarga nisbatan kengroq ko'rsatish;
- inson psixologiyasini, murakkab hayot jarayonlarini to'la ocha bilish;
- xarakterning ichki taraqqiyotini ko'rsata olish.

O'zbek romanchiligi salkam bir asrlik taraqqiyot tarixiga ega. Abdulla Qodiriy yetuk namunalarini yaratib bergan o'zbek romanchiligi tez rivojlandi, o'sdi, izlandi va adabiyotimizning asosiy janrlaridan biriga aylandi. O'zbek adabiyotida tarixiy, biografik, mistik, fantastik, detektiv, satirik va maishiy romanlar paydo bo'ldi. Roman jamiyat badiiy-estetik tafakkurini ini'kos qiluvchi janr bo'lgani uchun ham voqelik ichra evrilishi, inson o'y xayollari, ko'rgan-kechirganlari, topgan-yo'qotganlari bilan badiiy talqinga jalb etiladi. Roman izlanishga imkon beruvchi janr. So'nggi 10-17 yil ichida yaratilgan "Lolazor", "Otamdan qolgan dalalar", "Ming bir kecha", "Fano dashtidagi qush", "Kapalaklar o'yini", "Jaziramadagi odamlar", "Muvozanat" singari asarlar bu janr imkoniyatlari, roman tarixi, tadriji haqida fikr-mulohaza yuritishga undaydi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev B., Bobojonov F., Pardayev Z. Badiiy asar tili masalalari.-2008 y. 78-bet.
2. Абдурахмонов Ф. Бадий асар тилини ўрганиш ҳақида. Т., 1949. 205 б.
3. Qurambayev K "Adabiyotshunoslik asoslari" . Nukus-2011.
4. Botirova Shahlo. Romanchilikda evrilishlar || "Yoshlik" junali, 2009, N 4 .
5. www.refer.uz
6. WWW.Ziyonet.uz